Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 378
PEDAGOGIKA

LOYIHALASH TA'LIM TEXNOLOGIYASIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM OLISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Toxirjon Maqsudali o'g'li Jabborov*
Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika instituti
✉ toxirjonjabborov05@gmail.com

ANNOTATSIYA

mazkur talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish metodikasi yoritib o'tilgan. Ilmiy maqolada mustaqil ta'limni talabalarni o'quv bilish faoliyatini rivojlantirishda lyihalash ta'lim texnologiyasini ahamiyati, tashkil etishning metodik muammolari, mazkur muammo doirasida olib borilgan va tadqiqot doirasida metodik manba sifatida foydalanganligi bilan ta'limni tashkil etilishi talabalar o'z ustida ishlashi, bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib topirish imkoniyatini yaratish va texnologik yondashuvlari haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar

mustaqil ta'lim, loyihalash ta'lim texnologiyasi, o'quv bilish faoliyat, o'z ustida ishlash, bilim, ko'nikma, malaka.

DOI: 10.5281/zenodo.21835565

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi PQ-4391-son «Oliy ta'limda mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish vazifalari belgilab berilgan. Jamiyatimizning barcha Oliy ta'lim muassasalari kabi Pedagogika institutining professor o'qituvchilari tomonidan talabalarda mustaqil va ijodiy faoliyatni rivojlantirishga oid muammolarni bartaraf etish masalalariga keng e'tibor qaratilmoqda.

ADABIYOTLAR TAXLILI

Ta'lim jarayonida pedagogik ta'lim texnologiyalarini tadbiq etish asosida talabalarda ijodiy, mustaqil, tahliliy, taqqoslovchi va mantiqan fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muhim o'riga egadir. Shuningdek, Respublikamiz pedagog olimlari R.X.Djurayev, R.Safarova, X.Ibragimov, D.Ro'ziyeva, N.N.Azizxujayeva, J.Xasanboyev, O'.Tolipov, M.Usmonboyeva, B.Xodjayev, J.Tolipova va ilmiy tadqiqot ishlari mazmunida ta'limda pedagogik texnologiyalarni o'rni va ularning didaktik maqsadini ilmiy metodik jihatidan izohlab berilgan. J.G'.Yo'ldashev va S.A.Usmonovlarning " Pedagogik texnologiya asolari" deb nomlangan o'quv qo'llanmasida pedagogik texnologiyaning asoslari, manbalari, mezonlari, kurinishlari, darajalari, turlari, yunalishlari, tarkibiy tuzilishi, jarayonlari, vositalari, monitoringi xamda tatbiq etish masalalarini ilmiy metodik jihatdan asoslab berilgan [1].

Uzluksiz ta'lim tizimida mustaqil ishlarni bajarish va ularning ta'limda ijobiy xususiyatlarini olimlardan: V.I.Andriyanovaning o'zbek maktablarining 5-6 sinflarida mustaqil ish bajarishni o'rgatish

[2], O.B.Berdiyeva geometriya ta'limida o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish metodikasi [3], E.I.Zakinovning 6-8-sinflarda mustaqil ishlarni tashkil qilishning pedogogik asoslari [4], O'.N.Sultonova fizikadan o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish metodikasi[5], O'.Q.Tolipovning kasbiy ta'lim tizimida yoshlarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari [6], yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlar va ilmiy metodik adabiyotlar loyihalash ta'lim texnologiyasi asosida talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish metodikasiga oid tadqiqot ishimizni yoritishda metodik manba bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasida loyihalash ta'lim texnologiyasi asosida oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta'limini maqsadi, mazmuni, tashkil etish shakllari, metod va vositalaridan foydalanish imkoniyatidan o'rinli foydalanib borildi. Ma'lumki, loyihalash jarayoni yoki loyihali ta'lim usuli – bu, keng qamrovli tushuncha. Loyihalash metodi deganda, biz didaktik maqsadga erishish uchun muammolarni topish, aniqlash va ularni ishlab chiqish (texnologiya) usullarini tushunamiz. Ta'lim jarayonini loyihalash alohida olingan ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun barcha omillarni inobatga olgan holda uning loyihasi (sxemasi)ni ishlab chiqishdan iborat jarayondir.

TAXLILLAR VA NATIJALAR

Talabalarni mustaqil ta'lim olish faliyatini rivojlantirish maqsadida loyihalash ta'lim texnologiyasiga oid ilmiy metodik manbalarni tahlil qilindi va talabalarda mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish zaruratini belgiladi: loyihalash ta'lim texnologiyasi asosida talabalarda mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish orqali ta'limda samaradorlikka erishish bosqichlarini yanada takomillashtirish kerakligi;

Loyihalash ta'lim texnologiyasida mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirishda o'quv mashg'ulotlari uchun didaktik materiallarni boyitish; talabalarni mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirishda loyihalash ta'lim texnologiyasining ilmiy metodik asoslarini yaratish va ularni takomillashtirish; loyihalashtirilgan ta'limda mustaqil ta'limni tashkil etishning metod va vositalaridan o'rinli foydalanish holati va hokazo.

Loyihalash ta'lim texnologiyasi ta'lim jarayonini loyiha yordamida amalga oshirish usuli bo'lib, talabalarning ma'lum bir mavzu bo'yicha mustaqil yoki guruh bo'lib ishlashlarini ta'minlaydi. Ushbu texnologiya ta'lim jarayonini talabalar uchun faol, interaktiv va amaliy tarzda o'tkazish imkonini beradi. Loyihalash ta'lim texnologiyasining didaktik maqsadi talabalar ma'lum bir muammo yoki vazifani hal qilish ustida ishlashiga, bu jarayonda turli manbalardan ma'lumot yig'ish, tahlil qilish, reja tuzadilar va o'z g'oyalarini ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Bu usullar talabalarda mustaqillik, ijodiy fikrlash, va tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Tadqiqot ishimiz rivojida loyihalash ta'lim texnologiyasining quyidagi asosiy jihatlari aniqlandi:

1. Mustaqil ta'lim mavzusini bajarish bosqichlarini mavzuli reja asosida loyihalash.

2. Muammo yoki vazifa qo'yish: talabalarga ma'lum bir fan yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish maqsadida mustaqil izlanish va tadqiqot yechimini topish.

3. Mustaqil ta'lim mavzusini rejalashtirish: talabalar o'zlari bajaradigan ishlarni rejalashtirish, vaqtni to'g'ri taqsimlash va bajaradigan bosqichlarni reja asosida

belgilab olishi nazarda tutiladi.

4. Tadqiqot va axborot yig'ish: loyihani amalga oshirish jarayonida talabalar turli manbalardan axborot yig'adilar, tahlil qilib, eng samarali usullarni tanlaydilar.

5. Yechim ishlab chiqish va amalga oshirish: talabalar o'z yechimlarini ishlab chiqadilar va uni amalda sinab ko'radilar.

6. Natijani taqdim etish va tahlil qilish: loyiha yakuniga yetgach, talabalar o'z ishlarini tahlil qilish va natijalarni baholashi zarur. Mazkur ta'lim jarayonini afzalliklari: talabalar o'z bilim va ko'nikmalarini mustaqil ravishda rivojlantiradilar.

XULOSA

Loyihalash ta'lim texnologiyasi auditoriyadan tashqari mustaqil ta'limni tashkil etishda muhim o'ringa ega bo'lib, o'qituvchi faqatgina bilim berish bilan chegaralanib qolmay, talabani ijodiy faoliyatini rivojlantirish

va mustaqil o’qib o’rganishga undaydi va o’zi kuzatuvchi vazifasini bajaradi. Xulosa qilib aytganda, talabalarning mustaqil ta’lim olish faoliyatini rivojlantirishda ta’lim texnologiyasida tashkil etilishi ularda muayyan fan yuzasidan berilgan o‘quv opshiriqlarni puxta o‘zlashtirishga, shuningdek o‘quv faoliyatini rivojlantirish asosida ma’lumotlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga asos bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. J.G‘.Yo‘ldashev va S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asolari, -T.:- „O‘QITUVCHI“ 2004. - Qo‘llanma. -104b.
2. Андриановова П.Н. Развитие технического творчества в трудовом обучения учащихся общеобразовательной школы: Дисс. … канд. пед. наук. – М.: 2005. – 234с.
3. Berdiyeva O.B. Geometriya ta’limida o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalarini shakllantirish metodikasi: Avtoref. dis. … ped.fan.nom. – T.: TDPU, 2007. – 22b.
4. Закинов Э.И. Педагогические основы организации самостоятельной работы учащихся 6 – 8 классов: Дис. … канд. пед. наук – Т.: 2001. – 155 с.20.
5. Sultonova O‘.N. Fizikadan o‘quvchilarning mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish metodikasi: Avtoref. dis. ... ped. fan. nom. – T.: 2007.– 22b.
6. Tolipov O‘.Q. Talabalar mustaqil ishlarida o‘qitish vositalari // Xalq ta’limi. – Toshkent, 2000. - №1.- B. 45 – 47.
7. Qo‘ysinov O.A. Mustaqil ta’lim olish jarayonida talabalarning ijodiy tafakkurlarini shakllantirish. / Ta’lim jarayonida mustaqil tafakkur rivojlanishi: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005. - B. 98 – 99.